

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## ABDUXOLIQ G‘IJDUVONIY SIYRATI VA XULQ-ATVORINING HOZIRGI DAVRDAGI O‘RNI

X. U.Samatov

Imiy rahbar, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Bozorov Ziyodjonmirzo Ziyodullo o‘g‘li  
Samarqand filiali TT 23.04-guruh talabasi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada Abduxoliq G‘ijduvoniylarining hayotlarini, siyratlarini, u insonning ajoyib xulq-atvorlarini o‘rganishni va hozirgi zamonga foydali bo‘lgan tarbiyaviy va madaniy kitoblari tadqiq etiladi.

**Kalit so‘zlar:** tavba, hadis, fiqh, zikr, muhaddislaridan, tasavvuf.

“Муштарак тарихимизнинг ёрқин саҳифаларини ташкил этадиган маърифатпарвар аждодларимизнинг ибратли фаолиятини, уларнинг ўз қиммати ва аҳамиятини ҳамон йўқотмасдан келаётган бой меросини ҳамкор давлатлар ҳамда халқаро ташкилотлар вакиллари, таниқли хорижий олимлар билан биргаликда теран тадқиқ ва тарғиб этиш бизнинг устувор вазифамиздир”.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Abduxoliq G‘ijduvoniylarining 1106-yil 24-mart kunida tavallud topgan (vafoti 1179 yoki 1189). So‘fiy (murshid), naqshbandiya tariqati shayxlari vorisligining oltin zanjirining o‘ninchi ma‘naviy halqasidir. Naqshbandiya tariqatining kelib chiqishi Boyazid Bistomiy davriga borib taqaladi, ya‘ni so‘fiylarning “Bistomiya” yoki “Toifuriyya” tariqati paydo bo‘lgan.

Xoja Abduxoliq Buxorodan 40 kilometr uzoqlikdagi G‘ijduvon shahrida tavallud topgan. Otasi Imom Abduljamil Malatya shahridan (hozirgi Turkiya) kelgan. Onasi oliyjanob oiladan chiqqan. Abduxoliq G‘ijduvoniylarining Imom Molik avlodidan bo‘lgan



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

deb taxmin qilinadi. G'ijduvoniylar diniy ilmi Buxoroda olgan. U o'sha davrda mashhur olim Alloma Sadriddinning shogirdi bo'lgan.<sup>1</sup>

G'ijduvoniylarning kelishi bilan Muhammad Bahouddin Naqshbandgacha tariqat "Tariqat Xojagon" deb atala boshlandi. Abduxoliq G'ijduvoniylarning ustozlari Yusuf Hamadoniylar bo'lib, u ham Ahmad Yassaviylarning shayxi edi. Yassaviylar, Xoja Ahmad Yassaviylar (Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxminan 11- asrning 2-yarmi - 1166) - tasavvufning mashhur namoyandalariidan biri, turkiylar xalqlarining buyuk shoiri. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo'lgan. Yassaviylar chig'atoy tilida ijod qilgan.<sup>2</sup> "Ijodi ayo do'stlar nodon birla ulfat bo'lib bag'rim kuyib jondan to'yib o'ldim ma'no to'g'ri aytsam egri yo'lga bo'yin to'lg'ar qonlar yutib g'am zahriga to'ydim ma'no".

Yusuf Hamadoniylar (1048-yil 17-iyul, Buzanjird qishlog'i, Hamadon - 1140-yil 13-sentyabr, Bomiylar) - tasavvufning yirik namoyandasi, olim. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar unchalik ko'p emas. Abduxoliq G'ijduvoniylar, Fariddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar asarlarida Yusuf Hamadoniylar haqida ma'lumotlar bor. To'liq ismi - Yusuf ibn Ya'qub ibn Abduvohid ibn Abdubosit ibn Zamzam ibn Boqir ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Abu Xanifa No'mon ibn Sobit. Bag'dodda Abu Is'hoq Sheroziylaridan tahsil olgan. Keyinchalik Isfahon, Marv va Samarqand muhaddislaridan ilm o'rgangan. Tasavvufni Abu Ali Formadiylar va Abdulloh Juvayniylaridan o'rgangan. Zamonasining yetuk allomalari Abdulqodir G'iloniylar, G'azzoliylar, Hamiduddin Multoniylar bilan muloqotda bo'lgan, 30 marta haj ziyoratiga borgan.<sup>3</sup>

Abduxoliqlarning o'ziga xos xususiyati yashirin zikr, bu yo'lga kirganlarning ma'naviy o'zgarishining asosi bo'lib, tariqatning o'n bir tamoyilini ilgari surgan. Holbuki, Ahmad Yassaviylar baland zikr tarafdori bo'lib qoldi. G'ijduvoniylar o'z yo'lini Xorazm va Xurosonga yoygan. Asrlar o'tib, bu tariqatlarning ikkalasi ham butun O'rta Osiyo, Onado'li va Bolqon mamlakatlariga tarqaldi.

Manbalarda yozilishicha, Abduxoliq G'ijduvoniylar baland bo'yli, oq tanli, chehrasi chiroyli, qora qoshli edi. Uning boshi katta edi. Ko'krak va yelkalari keng, o'zi esa katta tanali bo'lgan.

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Naqshbandiya>

<sup>2</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Naqshbandiya>

<sup>3</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ahmad\\_Yassaviy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ahmad_Yassaviy)



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Abduxoliq G'ijduvoniyni ustozlari Hazrat Boboyi Laqlaqa - Xoja Niyoz Xorazmiyning qabrlari Romitan tumanidagi Laqlaqa qishlog'idadir.

Yigirma ikki yoshlarida Buxoroda tasavvuf olamida mashhur shayx Xoja Yusuf Hamadoniya uchrashib, tasavvuf ta'limotini egallaydi. Abdullo Barqiy, Hasan Andoqiy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni Yusuf Hamadoniyni eng yetuk shogirdlaridan sanaladi. Yusuf Hamadoni Buxoro shahrining (Xo'ja Nurobod ko'chasi) Korxonaga yashagan va Barqiy, Andoqiy, Yassaviy va Abduxoliq G'ijduvoni kabi shogirdlariga ta'lim bergan. Bu tabarruk makonda hozir Yusuf Hamadoniyni ramziy qabrlari bor. Abduxoliq G'ijduvoni o'zlarining "Maqomoti Yusuf Hamadoni" nomli asarlarida ustozlari Shayx Yusuf Hamadoniyni surat va siyratlari, go'zal axloqlari, yurish-turishlari, ibodati, hayot faoliyati va shogirdlariga munosabatlari xususida atroflicha ma'lumot beradilar. Mazkur asarda Abduxoliq G'ijduvoni o'z ustozlari Yusuf Hamadoniya shunday ta'rif beradilar: "Shayximiz piyoda o'ttiz ikki marta haj qilgan, hafs qiroati bilan ming marta Qur'oni xatm etgan edilar. Tafsir, hadis, fiqh, usul, furu' va kalomga doir yetti yuzta kitobni yod olgan, ikki yuz o'n uch nafar mashoyix bilan suhbat tutganlar. Ko'p vaqt ro'zador bo'lardilar. Sakkiz ming butparastni musulmon qilishga muvaffaq bo'lgan, tavba qildirib, to'g'ri yo'lga solgan kishilarning sanog'ini hech kim bilmasdi".<sup>4</sup>

Abduxoliq G'ijduvoniyni yozishlaricha, Hazrat Yusuf Hamadoni etikdo'zlik va dehqonchilik bilan shug'ullangan, Haq taolo nima bersa, kambag'al, yetim-yesir, bemor va serfarzand, muhtoj, yo'qsil oilalarga tarqatar ekan.

Rivoyatlarga ko'ra Abduxoliq G'ijduvoni besh yoshga kirganida ilm o'rganish uchun Buxoroga jo'natilgan. Buyuk olim Xoja Sadridin hazratlaridan Qur'oni karim va tafsihini o'rgana boshladi. Bir kuni darsda: "Rabbingizga tazarru' qilib bo'yin egib, yolvorib va yashirincha zikr qiling" (A'rof surasi, 55) oyati karimasi ustida to'xtalganda Abduxoliq ustoziga: "Ustoz, bu "yashirincha"dan maqsad nima o'zi? Qalb bilan qilingan zikrning asli nima? Agar zikr va duo ovoz chiqarib qilinsa oraga riyo kirishi mumkin. Riyo kirsagina haqqoniy ravishda zikr qilina olmasligi mumkin. Shoyad qalbdan zikr qilsam: "Shayton insonning tomirlarida oqadi" hadisi sharifiga ko'ra shayton zikrni eshitadi. Nima qilishimni bilmay qoldim, bu mushkulimni hal qilishda yordamingizni iltimos qilaman!" dedi. Ustoz yosh bo'lishiga qaramay bu bolaning bunday murakkab savol berganiga hayron qoldi va

<sup>4</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ahmad\\_Yassaviy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ahmad_Yassaviy)



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

shunday javob berdi: “Bolam! Bu masala qalb ilmlarining mavzusidir. Alloh taolo nasib etsa, senga bu ilmlarni o‘rgatadigan bir ustozga ro‘para qiladi. Qalb zikrini undan o‘rganasan va mushkuling hal bo‘ladi”.<sup>5</sup> Abduxoliq G‘ijduvoniylar hazratlari bu gapdan keyin mazkur muammoni hal qiladigan ustozni intizorlik bilan kuta boshladi. Bir kuni Xizr alayhissalom uning yoniga keldi. Unga Alloh taoloni maxfiy va oshkora zikr qilish yo‘llarini o‘rgatdi va ma‘naviy farzandlikka qabul qilib: “Qalbingdan la ilaha illalloh, Muhammadun rasululloh kalimasini mana shunday zikr qilasan!” deb ta‘rifladi.

Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniylar “Maqomati Yusuf Hamadoniylar” nomli risolalarida o‘z pirlarining suluk (Xudoga muqarrab bo‘lish yo‘li) haqidagi quyidagi pand-nasihatlarini keltiradi: “Ey Abduxoliq! Bilingki, Haq yo‘lining yo‘lchiligi, ya‘ni suluk ikki qismdir: suluki zohir va suluki botin. Birinchisi, suluki zohir bo‘lib, u har holu korda ilohiy amr va taqiqlarga rioya etish, imkon doirasida diniy mezonlarni saqlash va nafs orzularidan qochishdir. O‘z a‘zolarini havoyu nafsdan saqlab, shariat hududida muhofaza qilishdir. Ikkinchi qism bo‘lgan suluki botin esa qalbni poklashga harakat qilish va nafsoniy yomon sifatlarni yo‘qotish uchun g‘ayrat sarflashdir. Botiniylar tahorat - qalbning Haq zikri bilan go‘yo bo‘lishligi uchun zikrda behad jiddu jahd qilish. “Bu zikr talqini dastlab hazrat Abu Bakr roziyallohu anhunging qalbiga, undan Salmon Forsiylar roziyallohu anhuga, undan Ja‘fari Sodiqlar hazratlariga, undan Sulton Boyazid (Bastomiylar), undan Shayx Abul Hasan Haraqoniylar, undan buyuk shayx Abu Ali Formadiylar Tusiy barchalaridan Alloh rizo bo‘lsin alardan so‘ng esa bizga qadar yetib kelgan”, – der edilar.

Hazrat Abduxoliq G‘ijduvoniylarning juda ko‘p murid, muhib, shogirdlari bo‘lgan. Ularning eng yetuklari: Xoja Ahmad Siddiq, Xoja Avliyoil Kabir, Xoja Sulaymon Karmaniylar, Xoja Orif Revgariylar. Xoja Abduxoliqlarning muborak ruhlari Xoja Bahouddin Naqshband hazratlarini tarbiya qilgani uchun u ulug‘ zot Bahouddin Naqshbandning uvaysiylar – ma‘naviylar pirlari hisoblanadilar. Hazrat Bahouddinga zikri xufiya (ovoz chiqarmay mahfiy zikr qilish)ni o‘rgatgan ham u zoti sharifdir.

Abduxoliq G‘ijduvoniylar Alloh taolo ko‘p karomatlar bergan. Mir Alisher Navoiylar “Nasoyimul muhabbat” kitobida hazrat Xojai Jahon – Abduxoliq G‘ijduvoniylar Alloh bergan ulug‘ darajalarini ta‘kidlab: “Har vaqt namozda Ka‘baga borar

<sup>5</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abduxoliq\\_G%CA%BBijduvoniylar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abduxoliq_G%CA%BBijduvoniylar)



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

erdilar”, deb yozadi.<sup>6</sup> O’sha kitobda Alisher Navoiy Abduxoliq G’ijduvoniya quyidagi ta’rifni ham bergan: “Alarning (ya’ni Abduxoliqning) ravishi tariqatda hujjatdur. Barcha foruq (haqni botildan ajratuvchilar)ning maqbulidurlar.”<sup>7</sup>

Hazrat Abduxoliq G’ijduvoniya “Risoi sahoiya”, “Maqsadas solikin”, “Maslakal orifin”, “Maqomati Yusuf Hamadoniya”, “Tariqat odobi” nomli risoi lalar, shuningdek, ruboiy va qit’alar yozgan.

Rivoyatlarga ko’ra, Xoja Abduxoliq Alloh taolo uni ruhiy kamolotda to’g’ri yo’lni ko’rsata oladigan kimsa bilan birga olib kelishini kuta boshlagan. Tez orada Xizr bilan uchrashdi. Xizr ham otasining ustozini edi. Xizr Abduxoliqni ruhiy o’g’il sifatida qabul qilib, unga “vukuf adedi” (zikr sanash zarurati) va “yashirin zikr”ni o’rgatadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Abu Bakrga Sevr g’orida birinchi marta o’rgatgan bu zikr turi Abduxoliq G’ijduvoniya ning unga kirishi bilan yana o’z ahamiyatini topdi. Xoji Abduxoliq vafotidan keyin bu zikr turi Xojagan tariqati tarafdorlari tomonidan yana unutildi, ammo Abduxoliqning uveysi (g’oyib) muridi bo’lgan Shoh Naqshband nihoyat yashirin zikrni qayta tikladi.

Shuningdek, Xizr G’ijduvoniya ga yashirin zikrdan tashqari tavihid zikri “nafi va isbat” (inkor va tasdiq)ni ham o’rgatgani aytiladi.

G’ijduvoniya ning haqiqiy murshidi Yusuf Hamadoniya edi. Biroq u bilan tanishish Xizr sharofati bilan yuz berdi. Taxminan yigirma yoshida o’ziga ustoz bo’lgan hoji Abduxoliq qisqa fursatda bilimini o’zlashtirib oldi. Abduxoliq bir qancha musulmon davlatlariga sayohat qilib, bir muddat Suriyada yashadi. Hayotligida ham u haqidagi yaxshi shuhrat Islom xalifaligining barcha hududlariga tarqaldi. Minglab odamlar uni ko’rish va eshitish uchun kelishgan.

Bir darvesh undan so’radi: “Agar Alloh menga do’zax va jannatni tanlash erkinligini bergan bo’lsa, men do’zaxni tanlayman. Chunki jannat mening nafsini xohlagan narsadir. Men nafsning turtki va istaklariga qarshi kurashmoqchiman”. Bunga Abduxoliq G’ijduvoniya javob berdi: “Sizning fikringiz nafsdan chiqqani uchun xato va noto’g’ri. Qulning irodasi yoki tanlovi qanday qiymatga ega bo’lishi mumkin? Bizning ishimiz Robbi bizni olib boradigan joyga ergashishdir. U bizga nima buyursa, biz bajarishimiz kerak va faqat bu bandaning haqiqiy xizmati va nafsga qarshiligidir”.

<sup>6</sup> (A. Navoiy, “Mukammal asar-lar to’plami”, 17 tom. T. — 2001-yil, 253-bet).

<sup>7</sup> (A. Navoiy, “Mukammal asar-lar to’plami”, 17 tom. T. — 2001-yil, 254-bet).



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Abduxoliq G'ijduvoni shoh Naqshbandning g'oyib murshidi bo'lib, naqshband tariqatida alohida o'rin tutadi. U tariqatning asosiy tamoyillari sifatida ilgari surgan "o'n bir asos" tasavvufning barcha birlamchi manbalariga kiritilgan. Bu asoslar Naqshbandiya maqolasida bayon etilgan.

Baxouddin Naqshband Islomni hayot bilan, shaxs va oila bilan, jamiyat ravnaqi bilan bog'lab "Kam yegil, kam uxla va kam gapir" deb nasixat qilgan.

Amir Temur bu shiorga amal qilib, arkonu davlatga, barcha mulozimlarga aytar so'zim shu bo'ldi: "Kam yenglar ocharchilik ko'rmasdan boy va badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar va mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar dono bo'lasizlar" deb yozgan. Naqshband doimo adolatni, mehnat asosida bunyod etilgan xalol luqmani ma'qullagan. Bu jihatdan uning - insondagi yaxshi fe'llar, yaxshi amallar xalol luqmadandir so'zlari biz uchun ibratdir. Naqshbandiya tariqati o'zining mazmun-mohiyati jihatidan yangi tarbiya usullari-suhbat ta'limi, yashirin, botiniy zikr, anjuman ichra hilvatni olg'a surishi va targ'ib qilishi bilan ajralib turadi, ya'ni Allohga yaqinlashishning butunlay yangi bo'lgan, sifat jihatdan avvalgi tariqatlardan kata farq qiladigan 11 ta qoida, talab va usullarini ishlab chiqqanligi bilan ajralib turadi. Bu usul va qoidalar quyidagilardan iborat:<sup>8</sup>

1. hush dar dam. Tariqat a'zosi doimo Alloh nomini zikr qilishi, zikrga g'arq holatda hushyor bo'lib yurmog'i lozim. Xar bir nafas olganda va chiqarganda hushyorlik va ogohlikni yo'qotmaslik lozim, toki bunda g'aflat ruhingga xech yo'l topa olmasin;
2. nazar bar qadam. Muridning nazari doim har bir bosgan qadamni nazarga saqlasin, uning nazari behuda narsalarga sochilmasin va keraksiz joyga tushmasin. lozim bo'lmagan joyga bormasin;
3. safar dar vatan. Tariqat a'zosi ruhi tanasida bo'lgan holda Alloh sari intilishda bo'lsin, ya'ni har bir inson vafot etgach, tanasi tuproqqa aylanib yerda qoladi, ruhi esa Allohga qaytadi. Ammo sufiy tirik paytida ham fikri-zikri Alloh bilan bo'lishi kerak;
4. xilvat dar anjuman. Muridning doimo —Qalbing Allohda, qo'ling esa mehnatda shioriga amal qilib, zohiran xalq bilan, botinan haq bilan bo'lishligini bildiradi;
5. yodkard. Tariqat a'zosi doimo Alloh yodi bilan yashamog'i va zikr qilmog'i lozim;

<sup>8</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/fors-tojik-she-riyati/Abduxoliq-g-ijduvoni-1103-1179>



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

6. bozgasht, ya'ni Allohga qaytish. Tariqat a'zosi tili yoki dilida kalima keltirgandan so'ng uning orqasidan—Xudovando, mening maqsadim sensan so'zini aytadi. Bu qoida odamdan yaxshi yoki yomon fikrlarni xaydovchidir;

7. nigaxdosht. Tariqat a'zosi o'zining har bir xatti-harakatini Alloh roziligi yo'lida bajarilayotganligini xushyorlik bilan nazorat qilib borishi.

8. yoddosht. Sufiyning maqsadi doimo Alloh rizoligi yo'lida xarakat qilishi kerakligini yodida saqlashi lozimligi;

9. vuqufi zamon. Tariqat a'zosining doimo o'z vaqtini hisob-kitob qilib yurishi, vaqtning qanchasi xayrli, qanchasi yomonlik uchun bo'lganligini o'ylab yurmoqligi odobini bildiradi;

10. vuqufi adadiy. Tariqat a'zosi uchun hamisha Allohning yagonaligini, tanholigini, voxidligini nazarda tutib yurish odobidir;

11. vuqufi qalb. Tariqat a'zosining hamisha o'z dilida Allohni saqlash bilan ko'ngli to'q hamda xotirjam bo'lib yashirin zikr holatida bo'lish odobini bildiradi.

U tariqatning asosiy tamoyillari sifatida ilgari surgan "o'n bir asos" tasavvufining barcha birlamchi manbalariga kiritgan.

Bahouddin Naqshband haqida Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida shunday deb yozgan:

"Oliy sifatlar egasi va mo'tabar zot, haq ravshanligining shohi va to'g'ri yo'lning gul soluvchisi bo'lgan Xoja Bahouddin Naqshband bu iqlim uzra taxt qurgach, yo'qlik mulkida ham podshoh bo'ldi". Haqiqatdan ham, oltin silsila "Silsilot az-zaxab" deb atalgan va ko'ngillarda ishqu sadoqat urug'ini ko'kartirishga zamin yaratgan Naqshbandiya tariqati musulmon olamida asrlar osha chuqur ildiz otdi.

Hozirda Pokistonda Naqshbandiya tariqati jahon markazi faoliyat ko'rsatmoqda. XXI asrga kelib, nafaqat musulmon olamida, balki AQSH, Germaniya, Rossiya, Avstraliya, Litva kabi mamlakatlarda ham bu tariqatga ixlosmandlar ko'paydi. Naqshbandiylik tasavvufni xayotiyashtirgan ta'limotdir.

Abduxoliq G'ijduvoni hazratlari shogirdi Avliyo Kabirga aytgan ba'zi nasihatlarini "Vasoyo" (vasiyatlar) nomli forsha risolada to'plangan. Ulardan ba'zilari quyidagilardir: "O'g'lim, senga vasiyatim shu dirki, butun hollaringda ilm, adab va taqvo ustun bo'lsin. Salafiring asarlarini o'qi, izlaridan yur! Ahli sunnat val jamoat yo'lidan ayrilma! Fiqh va hadis o'rgan, johil so'fiylardan uzoq tur! Namozingni jamoat bilan o'qishga intil! Faqat imom yoki muazzin bo'lma! Shuhratdan uzoq tur, chunki shuhrat ofatdir. Har qanday maqom va amalga ko'z tikma! Mahkama hujjatlariga ismingni yozdirma, janjallashib hech kim bilan mahkamalashib yurma,



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

hech kimga kafil bo‘lma. Xalqning va siyatlariga ham aralashma! Podshoh va davlat arkoni bilan o‘ta yaqin bo‘lma! Dargoh qurma (o‘zingga xos takya ochma) va u yerda o‘tirma! Navqiron bolalar, nomahram ayollar, johil insonlar bilan ulfat bo‘lma! Go‘zal ohanglarga (musiqaga) ko‘p bog‘lanib qolma, zero uning haddan ortig‘i qalbni o‘ldiradi. Go‘zal ohanglarni va xush nag‘malarni tamoman rad va inkor qil! Zero, ularga bog‘langanlar ko‘pdir. Oz ye, oz gapir, oz uxla va olomondan arslondan qochgandek qoch! Doimo yolg‘iz va haq bilan barobar bo‘l! Halol luqma izla va shubhalardan qoch! Nafsingga tamoman hokim bo‘lmaguningcha uylanma, chunki dunyo seni o‘ziga mahliyo qilib qo‘ymasin. Ko‘p kulishdan, qah-qaha otishdan saqlan, chunki ko‘nglingni o‘ldirib qo‘yasan!”

Abduxoliq G‘ijduvoniylar hazratlari hijriy 616 (milodiy 1219) sanasida vafot qilgan.<sup>9</sup> Qabrlari bugun O‘zbekistonning Buxoro shahri yaqinidagi G‘ijduvon tumanidadir. “Vasoyo” va “Maqomati Yusufi Hamadoniylar” nomli ikkita forscha asari bor. Bundan tashqari, “Az guftari Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniylar” nomli forscha asarida ba’zi so‘zlari naql etilgan. G‘ijduvoniylar hazratlaridan keyin u kishining davom etgan tasavvuf yo‘li “Xojagon tariqati” deb atalgan. G‘ijduvoniylar hazratlarining vafotlaridan keyin uning o‘rniga murid va xalifasi Xoja Orif Revgariylar kelgandir.

Xulosa shuki Abduxoliq G‘ijduvoniylar buyuk avliyo O‘rta Osiyo tariqatining asoschisi va rahnamosidir. U kishining hayotidan biz juda ko‘p yaxshi ishlarni va yaxshi amallarni olib ko‘rsatishimiz mumkin. Abduxoliq G‘ijduvoniylar har bir ishlari sunnatga to‘g‘ri keladigan ishlardir va bergan ta’limotlari, bilimlari aytgan so‘zlari ham shu jumlasidandir. Abduxoliq G‘ijduvoniylar ustozlariga “Ustoz, bu “yashirincha”dan maqsad nima o‘zi? Qalb bilan qilingan zikrning asli nima? Agar zikr va duo ovoz chiqarib qilinsa oraga riyo kirishi mumkin. Riyo kirsam haqqoniy ravishda zikr qilina olmasligi mumkin. Shoyad qalbdan zikr qilsam: “Shayton insonning tomirlarida oqadi” hadisi sharifiga ko‘ra shayton zikrni eshitadi. Nima qilishimni bilmay qoldim, bu mushkulimni hal qilishda yordamingizni iltimos qilaman!” degan savollari yoshlariga mos kelmaydigan savol edi. Demak bu savolni berganlari u kishining aqllari va iymonlari juda kuchli bo‘lganligidan dalolat beradi.

<sup>9</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abduxoliq\\_G%CA%BBijduvoniylar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abduxoliq_G%CA%BBijduvoniylar)





## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ражабов Қ, Иноятов С.. Бухоро тарихи. Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2016 — 460 bet.
2. Jo'shon M.A. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –Т.: Cho'lpon, 2000, -80 b.
3. Ismoilov S.T. Naqshbandiya tariqatining tasavvuf taraqqiyotidagi o'rni.
4. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent, Navro'z, 1992 y, 58-bet.
5. Jo'raev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. 154-155-betlar.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom, Fan, Toshkent, 2001y
7. Imomnazarov M. Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. 176-bet.
8. Islom ensiklopediyasi. 138-139-betlar.
9. Alisher Navoiy, To'la asarlar to'plami, 17-j., T., 2002;
10. Abul Muqsin Muhammad Boqir ibn Muhammal Ali, Bahouddin Balogardon, T., 1993;
11. Idris shoh, Naqshbandiy tariqati, T., 1993;
12. Komilov N., Tasavvuf. Birinchi kitob, T., 1996;
13. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
14. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
15. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abduxoliq\\_G%CA%BBijduvoniya#G%CA%BBijduvoniya\\_dan\\_tariqatning\\_11\\_asosi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abduxoliq_G%CA%BBijduvoniya#G%CA%BBijduvoniya_dan_tariqatning_11_asosi)
16. <https://daryo.uz/2019/05/12/sakkiz-ming-butparastni-musulmon-qilgan-Abduxoliq-gijduvoniya-haqida>

